

Microsoft License Terms

Oxirgi yangilanish dekabr 2016 yil

MICROSOFT DASTURIY TA'MINOTI LITSENZIYA SHARTLARI

WINDOWS OPERATSION TIZIMI

AGAR SIZ (YOKI YURIDIK SHAXS BO'LSANGIZ YURIDIK MANZILINGIZ) QO'SHMA SHTATLARDA JOYLAGHGAN BO'LSANGIZ, ILTIMOS, TEGISHLI ARBITRAJ QISMINI VA 10-BO'LIMDAGI HARAKATDAN VOZ KECHISH QISMINI O'QING. U TORTISHUVLAR QAY TARZDA HAL ETILISHIGA TA'SIR KO'RSATADI.

Microsoft kompaniyasini tanlaganingiz uchun rahmat!

Windows dasturiy ta'minotiga qay tarzda ega bo'lganligingzga qarab, ushbu shartnoma (i) siz va qurilma ishlab chiqaruvchisi yoki qurilmangizga dastriy ta'minotini tarqatuvchisi o'rtaidagi; yoki (ii) agar siz chakana sotuvchidan dasturiy ta'minotni xarid qilib olgan bo'lsangiz, siz bilan Microsoft korporatsiyasi o'rtaidagi (yoki siz yashaydigan yoki yuridik manzilingizdagi vakillarining biri bilan) tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Microsoft bu Microsoft kompaniyasi yoki uning tarqatuvchilari tarafidan ishlab chiqarilgan qurilma ishlab chiqaruvchisidir, hamda agar dasturiy ta'minotni bevosita Microsoft kompaniyasidan sotib olgan bo'lsangiz Microsoft chakana sotuvchi hisoblanadi.

Ushbu shartnoma huquqlaringizni va Windows dasturiy ta'minotini qay holatda foydalanishingiz shartlarini tavsiflaydi. Shartnomani to'laligicha, jumladan dasturiy ta'minot bilan kelgan har qanday qo'shimcha litsenziya shartlarni, ulangan shartlarni, to'laligicha ko'rib chiqishingiz zarur, chunki barcha shartlar muhim bo'lib birgalikda mazkur shartnomani tashkil qilib sizga nisbatan qo'llaniladi. Siz bog'langan shartlarni (aka.ms/) havolasini brauzer oynasiga joylashtirib ko'rib chiqishingiz mumkin.

Ushbu shartnomani qabul qilish orqali yoki ushbu dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali siz ana shu barcha shartlarga rozililingizni bergan bo'lasiz va faollashtirish paytida hamda dasturiy ta'minotdan foydalanayotgan vaqtida 3-Bo'limda tavsifi kelgan naxfiylik bayonnomasiga muvofiq muayyan ma'lumotlarni uzatishga o'z rozililingizni bildirgan bo'lasiz. Agar siz qabul qilmasangiz va ushbu shartlarga amal qilmasangiz, siz dasturiy ta'minotdan yoki uning xususiyatlaridan foydalana olmasligingiz mumkin. Agar siz dasturiy ta'minotni bevosita xarid qilgan bo'lsangiz, siz uning qaytarib berish siyosati va ana shu siyosat asosida qurilma uchun to'loymi yoki kreditni qaytarib berish bo'yicha bevosita qurilma ishlab chiqaruvchisiga, o'rnatuvchisiga yoki chakana savdogarga murojaat qilishingiz mumkin. Agar

qaytarib berish yoki kredit qaytarishda dasturiy ta'minotni butun qurilma bilan qaytarib berish kerak bo'lsa, siz ana shu siyosatga amal qilishingiz shart.

1. Ko'rib chiqish.

a. Amal qilish doirasi. Ushbu shartnoma qurilmangizda o'rnatilgan yoki chakana sotuvchisidan xarid qilinib o'zingiz tomondan o'rnatilgan Windows dasturiy ta'minotiga (agar bo'lsa), har qanday shriftlarga, tasvirchalarga, dasturiy ta'minotda joy olgan rasm yoki tovushli fayllarga nisbatan amal qiladi, shuningdek, dasturiy ta'minot uchun chiqqan har qanday Microsoft yangilanishlarga, takomillashtirishlarga, ilovalarga, qo'shimchalarga, agar ular bilan alohida shartlar kelmasa, amal qiladi. U shuningdek, Microsoft kompaniyasi tarafidan ishlab chiqilgan pochta, kontaktlar, musiqa va fotosuratlar kabi Windows tizimiga qo'shilgan yoki bir qismi sifatida funksionallikni taqdim qiluvchi Windows ilovalariga nisbatan amal qiladi. Agar ushbu shartnoma sizning mintaqangizda ko'rsatilmaydiga xizmatlarga nisbatan shartlarga ega bo'lsa, bunday shartlar sizga nisbatan amal qilmaydi.

b. Qo'shimcha shartlar. Qurilmangiz imkoniyatlari, qanday sozlanganligi va undan qanday foydalanayotganligingizga qarab qo'shimcha Microsoft va uchinchi tomonlarning shartlari muayyan xususiyatlar, xizmatlar va ilovalardan foydalanishingizga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Iltimos, ularni o'qib chiqishni unutmang.

- (i) Ayrim Windows ilovalari ba'zi onlayn xizmatlariga kirishi yoki tayanishi mumkin bo'lib ana shu xizmatlardan foydalanishingiz ba'zan (aka.ms/msa)-da joylashgan Microsoft xizmat ko'rsatish shartnomasi kabi alohida shartlar va maxfiylik siyosatlar bilan boshqariladi. Siz ushbu shartlar va siyosatlarni mavjud bo'lishiga qarab ilova sozlamalaridagi xizmat shartlarida ko'rishingiz mumkin. Xizmatlar hamma ham mintaqalarda mavjud bo'lmasligi mumkin.
- (ii) Microsoft, ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi alohida litsenziya shartlari va maxfiylik siyosatlari ostida boshqariluvchi qo'shimcha ilovalarni o'z ichiga olishi mumkin.
- (iii) Dasturiy ta'minot (aka.ms/adobeflash) saytida joylashgan Adobe Systems Incorporated kompaniyasi bilan litsenziyalangan Adobe Flash pleyerini o'z ichiga olishi mumkin. Adobe va Flash Qo'shma Shtatlar va/yoki boshqa mamlakatlarda Adobe Systems Incorporated kompaniyasining yo qayd qilingan savdo belgisi yoki savdo belgisidir.
- (iv) Dasturiy ta'minot ushbu shartnoma yoki o'zlarining shartlari bilan shartlarniga litsenziyali uchinchi tomon dasturlarini o'z ichiga olishi mumkin. Litsenziya shartlari, xabarnomalar va e'tiroflar, agar shundayi bo'lsa, uchinchi tomon dasturlari uchun (aka.ms/thirdparty notices) saytida ko'riliishi mumkin.

- (v) Windows tizimi doirasida taqdim Word, Excel, PowerPoint va OneNote dasturlari shaxsiy va notijorat foydalanishingiz uchun ruxsat berilgan. Shartnoma bilan belgilangan alohida huquqlaringiz bundan mustasno.

2. O'rnatish va foydalanish huquqlari.

a. Litsenziya. Dasturiy ta'minotga litsenziya beriladi, sotilmaydi. Ushbu shartnoma doirasida biz sizga faqat bitta qurilmada (litsenziyalangan qurilmada) o'rnatiladigan va bir vaqtning o'zida faqat bitta odam ishlata oladigan xizmatlardan foydalanishning bir qismi sifatida dasturiy ta'minotning bir nusxasini o'rnatish huquqini beramiz, faqat siz mazkur shartnomaning boshqa barcha shartlariga javob berishingiz kerak bo'ladi. Microsoft yoki rasmiy manbasidan bo'limgan dasturiy ta'minotning asl bo'limgan versiyasi bilan yangilash yoki takomillashtirish yangilangan/takomillashtirilgan versiyasini asl sifatida bo'lamaydi, hamda sizda dasturiy ta'minot veriyasidan foydalanish ruxasti bo'lmaydi.

b.Qurilma. Ushbu shartnomada «qurilma» deb o'zida dasturiy ta'minotni ishlatish imkoniga ega bo'lgan apparat tizimi (jismoniy bo'ladimi) tushuniladi. Apparat qismi yoki bo'lagi qurilma hisoblanadi.

c.Cheklovlari. Ishlab chiqaruvchi yoki Microsoft kompaniyasi ushbu shartnomada aniq keltirilmagan barcha huquqlarni (mualliflik qonuni asosidagi huquqlarni) o'zida saqlab qoladi. Masalan ushbu litsenziya sizga quyidagilarni bajarish huquqini bermaydi va siz quyidagilarni qila olmaysiz:

- (i) dasturiy ta'minotning xususiyatlaridan alohida foydalanish yoki virtuallashtirish;
- (ii) dasturiy ta'minotni nashr qilish, nusxa ko'chirish (ruxsat etilgan zahira nusxasidan tashqari), qarzga berish, ijaraga berish yoki qarz qilish;
- (iii) dasturiy ta'minotni o'tkazib berish (ushbu shartnomada ruxsat berilgandan tashqari);
- (iv) dasturiy ta'minotdagi texnik taqiqlar yoki cheklovlardan atrofida ishlatish;
- (v) dasturiy ta'minotdan server dasturiy ta'minoti, tijorat xosting, bir vaqtning o'zida tarmoq orqali bir necha foydalanuvchilar tarafidan ishlatish, dasturiy ta'minotni serverda o'rnatish va foydalanuvchilarga unga masofadan kirish imkonini berish yoki dasturiy ta'minotni masofali foydalanuvchilar tarafidan foydalanishga o'rnatish;
- (vi) texnologiyalarini bo'laklarga ajratish, dekompilyatsiya qilish, ichini ochish yoki shularni amalga oshirishga harakat qilish; quyidagi cheklovlardan mustasno, agar (a) amaldagi qonun doirasida ruxsat berilgan bo'lsa; (b) dasturiy ta'minot bilan kelgan ochiq-manba qismlaridan foydalanish litsenziya shartlarida ruxsat berilgan bo'lsa; yoki (c) dasturiy ta'minotga qo'shilgan yoki shunga bog'liq GNU

quyi darajali umumiy jamoa litsenziyasiga muvofiq har qanday kutubxonasini sozlash kerak bo'lsa; hamda

- (vii) internetga asoslangan xususiyatlardan foydalanganingizda, siz xuddi shundan foydalanayotgan boshqalarning foydalanishiga xalaqt qiladigan tarzda ishlatmasligingiz shart, yoki ruxsat etilmagan tarzda xizmatga, ma'lumotga, hisob qaydnomasiga kirish harakatini qilmasligingiz yoki foydalanmasligingiz kerak.

d. Multi foydalanish ssenariylar.

- (i) **Bir necha versiyalar.** Agar siz dasturiy ta'minotni olayotganingizda sizga bir necha versiyalar taqdim qilingan bo'lsa (32-bit va 64-bit versiyalari kabi), siz bir vaqtning o'zida ana shu versyaning faqat bittasini bir marta o'rnatishingiz mumkin.
- (ii) **Bir necha yoki qo'shma ulanishlar.** Ulanishlarni ko'paytirish yoki birlashgan holda foydalanmoqchi bo'lган apparat yoki dasturiy ta'minot, yoki qurilma yo foydalanuvchilar sonini qisqartirib kirish yoki foydalanish, sizga kerak bo'lган litsenziyalar sonini kamaytirmaydi. Siz faqat litsenziyasiga ega bo'lган apparat yoki dasturiy ta'minotdan foydalana olasiz.
- (iii) **Qurilma ulanishlari.** Siz litsenziyalagan qurilmada quyidagi dasturiy ta'minot xususiyatlardan foydalanish maqsadida yana 20 qurilmagacha o'rnatilgan dasturiy ta'minotga kirish ruxsatini berishingiz mumkin: litsenziyalangan qurilmada fayl xizmatlari, chop etish xizmatlari, internet ma'lumoti xizmatlari va internet ulanish almashuvi hamda telefoniya xizmatlari. Sizga qurilmalar o'rtasida ma'lumotni sinxronlashtirish uchun litsenziyalangan qurilmada dasturiy ta'minotga istagancha qurilmalarning kirish imkonini beriladi. Ushbu bo'lim, dasturiy ta'minotning boshqa qurilmalarda birlamchi funksiyasini o'rnatish (ushbu bo'limda ruxsat etilgan xususiyatlardan tashqari) huquqi berilganligini anglatmaydi.
- (iv) **Virtuallashga muhitda foydalanish.** Ushbu litsenziya sizga jismoniy bo'ladimi yoki virtual bo'ladimi, faqat bitta qurulmada bitta nussasini o'rnatish huquqini beradi. Agar siz dasturiy ta'minotni bir yoki bir nechta virtyal qurilmalarda o'rnatishni xohlasangiz, siz har bir qurilam uchun alohida litsenziyaga ega bo'lishingiz shart.
- (v) **Masofadan kirish.** Har 90 kunda bir martadan ko'p bo'Imagan davriylikda, siz litsenziyalangan qurilmada litsenziyalangan foyddalanuvchi sifatida bitta foydalanuvchini tayinlashingiz mumkin. Litsenziyalangan foydalanuvchi boshqa qurilmadan masofali texnologiyadan foydalangan holda litsenziyalangan qurilmaga kirishi mumkin. Boshqa foydalanuvchilar, boshqa paytlarda litsenziyalanga qurilmaga boshqa qurilmalarda alohida litsenziyalangan qurilmada xuddi shu dasturiy ta'minot yoki undan keyingi versiyalariga masofadan kirishi mumkin.

(vi) **Masofadan yordam.** Siz dasturiy ta'mintga hech qanday qo'shimcha litsenziyalarni olmasdan faol seansni umumiy foydalanish uchun masofadan yordam texnologiyalaridan foydalanishingiz mumkin. Masofadan yordam bitta foydalanuvchiga bevosita boshqaning kompyuteriga, odatda muammolarni hal etish uchun, kirish imkonini beradi.

e.Zaxira nusxasi. Siz zahirlash maqsadida dasturiy ta'minotning faqat bitta nusxasini yaratishingiz mumkin va agar dasturiy ta'minot quyidagi 4-bo'linda tavsifi kelgandek avtonom nusxasi sifatida olingan bo'lsa ana shu dasturiy ta'minotni ko'chirish maqsadida foydalanishingiz mumkin.

3. Maxfiylik; Ma'lumotdan foydalanish ruxsati. Maxfiyligingiz biz uchun muhimdir. Dasturiy ta'minotning ayrim xususiyatlari ulardan foydalanganingizda ma'lumot yuborishi yoki qabul qilishi mumkin. Ushbu xususiyatlarning ko'pchiligi foydalanuvchi interfeysi orqali o'chirilishi mumkin, yoki siz ulardan foydalanmaslikni tanlashingiz mumkin. Ushbu shartnomani qabul qilish va dasturiy ta'minotdan foydalanishingiz orqali siz Microsoft kompaniyasi Microsoft maxfiylik bayonnomasida (aka.ms/privacy) tavsifi kelgan va dasturiy ta'minot xususiyatlari bilan bog'langan foydalanuvchi interfeysida kelgan tavsiga muvofiq ma'lumotlarni yig'ilishga, foydalanishga va oshkor qilishga o'z rozililingizni bergen hisoblanasiz.

4. Ko'chirish. Agar siz dasturiy ta'minotni iste'molchi sifatida Germaniyadan yoki ushbu sayt ro'yxatida kelgan (aka.ms/transfer) mamlakatlardan birida olgan bo'lsangiz mazkur bo'lim qoidalari amal qilmaydi. Bunday holatda dasturiy ta'minotni uchinchi tarafga uzatish va undan foydalanish huquqi amaldagi qonunga muvofiq bo'lishi kerak.

a. Qurilmada avvaldan o'rnatilgan dasturiy ta'minot. Agar siz dasturiy ta'minotni qurilmaga o'rnatilgan holda olsangiz (va agar siz avvaldan qurilmada o'rnatilgan dasturiy ta'minotni yangilasangiz), dasturiy ta'minot litsenziyasini bevosita boshqa litsenziyalangan qurilmaga o'tkazishingiz mumkin. Uzatish dasturiy ta'minotni o'z ichiga olishi shart, va agar qurilma bilan kelgan bo'lsa asl Windows yorlig'i hamda mahsulot kalitiga ega bo'lsishi shart. Har qanday ruxsat etilgan uzatishdan oldin, boshqa taraf ushbu dasturiy ta'minotning uzatilishi va foydalanilishiga nisbatan ushbu shartnomaga amal qilishiga o'z rozilagini bildirishi kerak.

b. Avtonom dasturiy ta'minot. Agar siz dasturni alohida dastur ta'minoti sifatida olgan bo'lsangiz (shuningdek, uni alohida dastur ta'minoti sifatida yangilagan bo'lsangiz), dasturiy ta'minotni o'z qurilmangizga o'tkazishingiz mumkin. Shuningdek, siz dasturiy ta'minotni boshqa bir kirishining egaligida bo'lgan qurilmaga yuborshingiz mumkin, agar (i) siz dasturiy ta'minotning birinchi litsenziyalangan foydalanuvchisi bo'lsangiz va (ii) yangi foydalanuvchi ushbu shartnomaga shartlariga rozi bo'lsa. Siz dasturiy ta'minotni uzatishingiz uchun sizga ruxsatini bergen zaxira nusxasidan foydalanishingiz mumkin. Dasturiy ta'minotni har safar yangi qurilmaga uzatganingizda, siz avvalgi qurilmadan

dasturiy ta'minotni olib tashlashningiz kerak bo'ladi. Qurilmalar o'rtasida litzensiyani umumiy foydalanish uchun dasturiy ta'minotni uzatishingiz mumkin.

5. Rasmiy dasturiy ta'minot va faollashtirish. Sizga dasturiy ta'minotdan faqat tegishli ravishda litsenziyalangan bo'sangiz va mahsulot asl kaliti yoki boshqa rasmiy usul bilan faollashtirilgan bo'lsa, foydalanish ruxsati beriladi. Dasturiy ta'minotdan foydalanayotgan paytda internetga ulansangiz, uni muayyan qurilma bilan bog'lab qo'yish maqsadida faollashtirish uchun u Microsoft yoki uning filiali bilan avtomatik tarzda bog'lanadi. Shunindek, siz dasturiy ta'minotni internet yoki telefon orqali qo'lda faollashtirishingiz mumkin. Nima bo'lganda ham, ma'lumot uzatishi amalga oshadi va sizga nisbatan internet, telefon va SMS xizmatlari to'lovlari qo'llanilishi mumkin. Faollashtirish paytida (yoki qurilmangizga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli qayta faollashtirishda) dasturiy ta'minot o'rnatilgan nusxasi soxta, noto'g'ri litsenziyalangan yoki ruxsat etilmagan o'zgartirishlarga egaligni aniqlaydi. Agar faollashtirish xatolikka uchrasa, dastur soxta Microsoft dasturiy ta'minotini asl Microsoft dasturiy ta'minoti bilan o'zi almashtirishga harakat qiladi. Shuningdek, siz dasturiy ta'minot uchun tegishli litsenziya olish uchun eslatmalarni olishingiz mumkin. Muvaffaqiyatli faollashtirish dasturiy ta'minotning asl yoki tegishli ravishda litsenziyalanganligini anglatmaydi. Siz faollashtirishni aylanib o'tishingiz yoki chetlashishingiz mumkin emas. Dasturiy ta'minotingiz haqiqiy ekanligini va tegishli ravishda litsenziyalanganligini aniqlashga yordam berish uchun (aka.ms/genuine) saytiga qarang. Ayrim yangilanishlar, qo'llab-quvvatlashlar va boshqa xizmatlar faqatgina asl Microsoft dasturiga ega bo'lgan foydalanuvchilarga ko'rsatilishi mumkin.

6. Yangilanishlar. Daasturiy ta'minot vaqtiga vaqtiga bilantizimni va ilova yangilanishlarini tekshirib turadi, hamda ularni yuklab olib siz uchun o'rnatib beradi. Siz yangilanishlarni faqatgina Microsoft-dan yoki rasmiy manbalaridan olishingiz mumkin, hamda Microsoft ana shu angilanishlarni o'rnatish uchun tizimingizni yangilashi mumkin. Ushbu shartnomani qabul qilishingiz bilan siz ushbu turdag'i avtomatik yangilanishlarni har qanday qo'shimcha xabar berishsiz qabul qilishga rozililingizni berga hisoblanasiz.

7. Dasturiy ta'minotning avvalgi versiyalaridan foydalanish huquqlari. Agar siz qurilmani Windows-ning avvaldan o'rnatilgan professional versiyasini ishlab chiqaruvchidan yoki o'rnatuvchidan olgan bo'lsangiz, siz yo Windows 8.1 Pro yoki Windows 7 Professional versiyasidan toki Microsoft ana shu uchun avvalgi versiya qo'llab-quvvatlashni taqdim qilgunga qadar foydalanishingiz mumkin, bu haqda (aka.ms/windowslifecycle) saytida keltirilgan. Ushbu shartnoma sizning avvalgi versiyalardan foydalanishingizga nisbatan amal qiladi. Agar avvalgi versiyalar boshqa tarkibiy qismlarga ega bo'lib ular bilan alohida shartnoma kelgan bo'lsa, ana shu shartnoma shartlari sham sizga nisbatan qo'llaniladi. Na ishlab chiqaruvchi, va na Microsoft sizga avvalgi versiyalarni taqdim qilish majburiyatiga ega emas. Siz avvalgi versiyalarni alohida olishingiz kerak, va uning uchun sizdan haq olinishi mumkin. Siz istagan vaqtida avvalgi versiyani asl versiyasi bilan almashtrishingiz kerak bo'ladi.

8. Geografik va eksport cheklovlar. Agar siz dasturiy ta'minotdan muayyan geografik mintaqada foydalanish bilan cheklangan bo'lsa, siz dasturiy ta'minotdan faqat shu mintaqada faollashtirishingiz mumkin. Siz shuningdek, cheklovlar, yo'nalishlar, so'nggi foydalanuvchi va foydalanishni o'z ichiga olilishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotga nisbatan amal qiluvchi barcha mahalliy va xalqaro eksport qonun va qoidalarga amal qilishingiz shart. Geografik va eksport cheklovlar bo'yicha batafsilroq ma'lumot olish uchun (aka.ms/georestrict) va (aka.ms/exporting) saytlariga tashrif buyuring.

9. Qo'llab-quvvatlash va pulni qaytarish jarayonlari.

a. Qurilmada avvaldan o'rnatilgan dasturiy ta'minot. Umumi dasturiy ta'minot bo'yicha qo'llab-quvvatlash opsiyalari uchun qurilma ishlab chiqaruvchisi yoki o'rnatuvchisi bilan bog'laning. Dasturiy ta'minotdan kelgan qo'llab-quvvatlash raqamiga qo'ng'iroq qiling. Microsoft-dan bevosita olingan yangilanishlar va qo'shimchalar uchun Microsoft (aka.ms/mssupport) saytida ko'rsatilgandek tegishli ravishda litsenziyalangan dasturiy ta'minotga cheklangan qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim qilishi mumkin. Agar siz to'lovingizni qaytarib olishni istayotgan bo'lsangiz, qaytarib berish siyosatlarini aniqlab olish uchun ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi bilan bog'laning. Siz ana shu siyosatlarga amal qilishingiz shart, ularga asosan siz pulingizni qaytarib olishingiz uchun dasturiy ta'mnotni va o'rnatilgan qurilmani qaytarib berishingiz talab etilishi mumkin.

b. Chakana savdogaridan olingan dasturiy ta'minot bo'yicha. Microsoft (aka.ms/mssupport) saytida ko'rsatilgandek tegishli ravishda litsenziyalangan dasturiy ta'minotga cheklangan qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim qiladi. Agar siz dasturiy ta'mnotni chakana savdogaridan xarid qilgan bo'lsangiz hamda to'lojni qaytarib olishni xohlasangiz, va uni qayerdan olganligingizni bilmayotgan bo'lsangiz, Microsoft kompaniyasining to'lojni qaytarib olish siyosati haqidagi ma'lumot olish uchun Microsoft kompaniyasiga murojaat qiling. (aka.ms/msoffices) saytiga qarang, yoki Shimoliy Amerikada (800) MICROSOFT kompaniyasiga qo'ng'iroq qiling yoki (aka.ms/nareturns) saytiga qarang.

10. Hakamlar sudi va guruhli da'vodan voz kechish agar siz Qo'shma Shtatlarda istiqomat qilsangiz (yoki kompaniyangiz joylashgan yuridik manzil).

Biz hech qachon tortishub qilmaymiz degan umiddamiz, biroq kelishmovchilik yuz bersa, siz va biz ushbu kelishmovchilikni norasmiy tarzda 60 kun ichida hal etishga harakat qilamiz. Agar kelishmovchilikni hal etish imkoniyati bo'lmasa, siz va biz **tortishuvni Federal arbitraj aktiga («FAA») muvofiq Amerika arbitraj assotsiatsiyasida («AAA») hal etilishiga roziligidimizni bildirgan bo'lamiz, sudda sudya yoki hakam oldida da'volashish emas.**

Buning o'rniga neytral hakam hal qiluv qarorini chiqaradi va ushbu hakamning qarori yakuniy bo'ladi, FAA oldida appelyatsiya berish bundan mustasno. **Guruhli sud tortishuvlari, sinfiy arbitrajlar, shaxsiy himoyachi jarayonlar va boshqa vakillik harakatlarga ruxsat berilmaydi. Ikkala tarafning roziligidisiz individual tortishuvlarga ham yo'l qo'yilmaydi.**

«Biz» «bizning» va «bizni» so'zlari Microsoft, qurilma ishlab chiqaruvchisi va dasturiy ta'minot o'rnatuvchini anglatadi.

a.Ixtilof – IP dan tashqari barcha narsa. «Tortishuv» o'z ma'nosiga ko'ra imkoni boricha

keng ma'nolidir. U siz bilan ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi, yoki siz bilan Microsoft, o'rtasidagi dasturiy ta'minot, uning narxi yoki mazkur shartnoma ustida, jumladan har qanday kafolat, huquqbazarlik, nizom va qoidani buzish bo'yicha tortishuvlarni o'z ichiga oladi, **litsenziyangiz yoki litsenziyamiz egalarining intellektual mulk huquqlarini kuchga kiritish yoki haqiqiylik bo'yicha tortishuvlar bundan mustasno.**

b.Avvalnorozilik xabarnomasini yuboring. Agar sizning shikoyatingiz bo'lsa va

mijozimizning xizmat vakillari hal qilib bera olmasalar, AQSh pochtasi orqali ishlab chiqaruvchiga yoki o'rnatuvchiga norozilik xatini yuboring, Diqqat: YURIDIK BO'LIMIGA. Agar norozililingiz Microsoft kompaniyasiga nisbatan bo'lsa, uni Microsoft korporatsiyasiga yuboring, Diqqat: LCA ARBITRATION, One Microsoft Way, Redmond, WA 98052-6399. Bizga ismingizni, manzilingizni, siz bilan qay yo'l bilan bog'lana olishimizni, muammo nimada ekanligini va nima istayotganligingizni yozib yuboring. Shabl (aka.ms/disputeform) saytida mavjud. Agar bizda ham norozilik bo'lsa, biz ham shu yo'lni tutamz. Agar tortishuv hal etilmasa 60 kundan so'ng biz arbitraj jarayonini boshlaymiz.

c. Kichik shikoyatlar sudi opsiyasi. Bizga Norozilik xabarnomasini yuborish o'rniغا, agar siz Microsoft kompaniyasidan norozi bo'lsangiz, agar sud talablariga javob bersangiz biz bilan yashash joyingiz bo'yicha (yoki kompaniyangiz yuridik manzili joylashgan joy bo'yicha) yoki bizning King County, Washington USA manzilida joylashgan bosh qarorgohimiz bo'yicha kichik shikoyatlar sudida ish ochishingiz mumkin. Biz sizning tortishuv haqidagi xabaringizni pochta orqali yuborib bizga uni ko'rib chiqishimiz uchun 60 kun muddat berasiz degan umiddamiz, biroq kichim shikoyatlar sudiga murojaat qilsangiz buni qilishingiz shart emas.

d. Hakamlik sudi jarayoni. AAA o'zining Tijorat hakamlik qoidalari asosida har qanday

hakamlik sudi jarayonini yuritadi (yoki agar siz jismoniy shaxs bo'lsangiz va dasturiy ta'minotdan shaxsiy yoki maishiy maqsadda foydalansangiz, yoki tortishuv qiymati \$75 000 AQSh dollari yoki undan kamroq bo'lsa, yoki siz jismoniy shaxs bo'lmasangiz yo qay tarzda dasturiy ta'minotda foydalansangiz, uning Iste'molchilar hakamlik qoidalari). Qo'shimcha ma'lumot olish uchun (aka.ms/adr) saytiga qarang yoki 1-800-778-7879 telefon raqamiga qo'ng'iroy qiling. Arbitraj jarayonini boshlash uchun (aka.ms/arbitration) saytida joylashgan shaklni AAA-ga yuboring; nusxasini pochta orqali ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchiga yuboring (yoki shikoyatingiz Microsoft ustidan bo'lsa Microsoft-ga yuboring). Shikoyat qiymati \$25 000 AQSh dolalri yoki undan kamroq bo'lsa, har qanday shikoyat, hakam shaxsan uchrashib tinglanishi kerak

deb topmagan holda, telefon orqali tinglanadi. Har qanday shaxsiy tinglash sizning istiqomat qilgan manzilingizda (yoki kompaniyangiz yuridik manzili bo'yicha) yoki bizning ushbu bosh qarorgohmiz manzlida amalga oshiriladi – King County, Washington agar shikoyatingiz Microsoft kompaniyasi ustidan bo'lsa. Tanlovingiz. Hakam sizga individual ravishda sud imkoniga qarab yo'qotishlarni tiklab berishi mumkin. Hakam shaxsiy shikoyatingizni qoniqtirish maqsadida deklarator himoya yoki taqiq qo'yishi mumkin.

e.Arbitraj narxlari va to'lovleri.

- (i) **Tortishuv qiymati \$75 000 AQSh dollari undan kam bo'lsa.** Ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi (yoki Microsoft agar norozililingiz Microsoft bilan bo'lsa) darhol talab qilayotgan qiymatingizni qaytarib beradi ba AAA-ga va hakamlik sudiga xarajatlarni qoplab beradi. Agar siz hakam tayinlangunga qadar bizning so'nggi yozma hal etish taklifimizni rad qilsangiz, sizning shikoyatingiz hakam qaroriga bog'lanadi («taqdim» deb nomlanadi), va hakam sizga so'nggi yozma hal etish taklifidan ko'p taqdim qilsa, ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi (yoki Microsoft agar shikoyatingiz Microsoft ustidan bo'lsa): (1) taqdimdan ko'proq yoki \$1 000 AQSh dollari miqdorida to'lov qilib beradi; (2) agar mavjud bo'lsa tegishli ravishda advokat haqini to'lab beradi; va (3) advokatingiz tegishli ravishda tekshirish o'tkazish, tayyorgarlik qilish, shikoyatni berish bo'yicha hisoblagan har qanday xarajatlarni (jumladan mutaxassis xarajat va to'lovlarini) qoplab beradi. Hakam siz va bizning roziligimiz bilan qiymatlarni belgilab beradi.
- (ii) **Tortishuv qiymati \$75 000 AQSh dollaridan katta bo'lsa.** AAA qoidalari shikoyat to'lovi qiymatini va AAA hamda hakamning xarajat qiymatlarini boshqaradi.
- (iii) **Har qanday qiymat hajmiga ega tortishuvlar.** Agar siz hakamlik jarayonini boshlasangiz biz AAA yoki hakam to'lovlarini alab qilmaymiz, yoki qaytaradigan to'lovlnarni toki hakam ularni mayda deb hisoblasa yoki tegishli bo'limgan maqsadda foydalanilgan deb topsa. Agar bir arbitraj jarayonini boshlasak, biz barcha ro'yxatdan o'tkazish ishlari, AAA va hakamning xarajatlarini to'laymiz. Biz sizdan har qaysi arbitraj bosqichida advokat xarajatlarini sizdan talab qilmaymiz. Tortishuv qiymati noma'lum bo'lgan to'lov va xarajatlar.

f.Bir yil ichida berilishi kerak. Siz bilan biz birlashtirishda shikoyat birinchi bor taqdim qilingan kundan boshlab bir yil ichida har qanday shikoyat va tortishuvlar bo'yicha quyi instansiyalardagi sudlarga da'vo bilan murojaat qilamiz (intelлектual mulk bo'yicha tortishuvlar bundan mustasno – 10.a-bo'limiga qarang). Aks holda ular butunlay rad etiladi.

g.Shartnoma shartlarining bo'linishi. Agar guruqli davodan voz kechish barcha yoki qisman noqoqnuniy yoki kuchga emas deb topilsa, ana shu qismlar ustida hakamlik

qilinmaydi va sudda ko'rildi, qolganlari arbitrajda ko'rishda davom etiladi. Agar 10-bo'limning biron bir qismi noqonuniy yoki kuchga emas deb topilsa, ana shu qism bo'linadi vaa 10-bo'limning qolgan qismlari kuchda qoladi.

h. AAA qoidalari bilan ixtilof. Ushbu shartnoma agar AAA-ning Tijorat hakamlik qoidalari yoki iste'molchi hakamlik qoidalari bilan ixtilof qilsa ustunlik kuchiga ega bo'ladi.

i. Microsoft taraf yoki uchinchi taraf benefitsiari sifatida. Agar Microsoft qurilma ishlab chiqaruvchi bo'lsa yoki siz dasturiy ta'minotni chakana savdogari tomonidan xarid qilgan bo'lsangiz Microsoft ushbu shartnomada taraf bo'ladi. Aks holda Microsoft taraf bo'lmaydi biroq shartnomangizda tortishuvni norasmiy muzokara orqali hal qilishda uchinchi taraf benefitsiari hisoblanadi.

11. Boshqaruvchi qonun. Siz yashab turgan (agar yuridik shaxs bo'lsangiz, kompaniyangiz joylashgan) mamlakat qonunlari dasturiy ta'minotga tegishli narxi yoki ushbu shartnoma bo'yicha shikoyat va tortishuvlarni, jumladan kontrakt shartlarini buzish bo'yicha shikoyatlar, iste'molchi huquqlari buzilganlik,adolatsiz raqobat qonunlari, kafolar qonunlari,adolatsiz boyish, fuqarolik qonunini buzish bo'yicha shikoyatlarni qunun tamoyillarining ixtilof qilishiga qaramasdan boshqaradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida arbitrajga tegishli barcha masalalarni FAA boshqaradi.

12. Iste'molchilar huquqlari, mintaqaviy turfaliklar. Ushbu shartnoma muayyan qonuniy huquqlarni tavsiflaydi. Siz turgan hudud yoki mamlakat qonunchiligiga muvofiq siz boshqa huquqlarga, masalan, iste'molchi huquqlariga ega bo'lishingiz mumkin. Siz ham o'zingiz dasturiy ta'minotni sotib olgan tomonga nisbatan huquqlarga ham egasiz. Bu shartnoma agar siz yashab turgan shtat yoki mamlakat qonunlari ruxsat bermasa, ana shu huquqlarni o'zgartiri olmaydi. Masalan, agar siz dasturiy ta'minotni quyidagi mintaqalardan biridan olgan bo'lsangiz, yoki mamlakatning majburiy qonunlari qo'llanilsa, sizga nisbatan quyidagi qoidalari amal qiladi:

a. Avstraliya. «Cheklangan kafolatlar»ga iqtibos bu Microsoft, ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi tarafidan berilgan ochiq kafolatdir. Ushbu kafolat qonun doirasida ega bolgan boshqa huquq va yuridik himoyalarga, jumladan Avstraliya iste'molchilar huquqlari majburiy kafolatlarga qo'shimchadir.

Ushbu bo'limda «mahsulotlar» deb Microsoft, ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi ochiq kafolat beradigan dasturiy ta'minotga aytiladi. Bizning mahsulotlar Avstraliya iste'molchilar huquqlari doirasida chiqarib yuborilmaydigan kafolatlar bilan keladi. Siz har qanday ko'rilgan yoki ko'rilmagan boshqa yo'qotish va zararlar uchun mahsulotni almashtirib berish yoki qoplاب berish huquqiga egasiz. Shuningdek, sizda agar mahsulot tegishli sifatda bo'lmasa tuzatish yoki almashtirib berish huquqi bor.

b. Kanada. Siz qurilmangizda internetga kirishni o'chirib qo'yish orqali yangilanishlarni olishni to'xtatishingiz mumkin. Agar va qachonki siz qaytadan internetga ulansangiz, dasturiy ta'minot yangilanishlarni tekshirishni va o'rnatishni davom ettiradi.

c. Yevropa Ittifoqi. Quyidagi 13.d(i) bo'limidagi akademik maqsadda foydalanish cheklovi mazku saytda ro'yxati kelgan yurisdiksiyalarda amal qilmaydi: (aka.ms/academicuse).

d. Germaniya va Avstriya.

(i) **Kafolat.** Tegishli litsenziyalangan dasturiy ta'minot u bilan birga kelgan Microsoft materiallarida tavsiflangandek ishlaydi. Biroq ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi va Microsoft litsenziyalangan dasturga nisbatan hech qanday shartnoma kafolatlarini bermaydi.

(ii) **Mas'uliyat chegaralari.** Atayin o'zini noto'g'ri tutish, jiddiy ehtiyotsizlik, Mahsulot mas'uliyati dalolatnomasi asosida berilgan shikoyat shuningdek, o'lim yoki shaxsiy yoki jismoniy jarohat olgan holatda ishlab chiqaruvchi, o'rnatuvchi yoki Microsoft majburiy qonunlarga muvofiq javobgar hisoblanadi.

Avvalgi jumani qo'llagan holda, ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi yoki Microsoft faqatgina kichik e'tiborsizliklar uchun javobga bo'ladi, agar ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi yoki Microsoft o'zining shartnoma majburiyatlarini bajarmasi, ularning bajarilishi ushbu shartnomaning tegishli ravishda bajarilishi kerak bo'lga bo'lsa va uning bajarilmasligi ushbu shartnomaning maqsadlarini xavf ostiga qo'yan bo'lsa va taraf unga doimo ishongan bo'lsa («kardinal majburiyatlar» deb nomlanmish). Kichik e'tiborsizlikning boshqa holatlarda ishlab chiqaruvchi yoki o'rnatuvchi yoki Microsoft javobgar bo'lmaydi.

e. Boshqa mintaqalar. Mintaqaviy o'zgarishlarning so'nggi ro'yxatini ko'rish uchun (aka.ms/variations) saytiga qarang.

13. Qo'shimcha xabarnomalar.

a. Tarmoqlar, ma'lumot va internetdan foydalanish. Dasturiy ta'minot orqali kirilgan dasturiy ta'minot va xizmatlarning ayrim xususiyatlari internetga ulanishni talab etadi. Sizning tarmoqqa kirishingiz va foydalanishingiz (jumladan haq olinishi) uyali yoki internet provayder bilan shartnoma shartlari qo'llanilishi mumkin. Dasturiy ta'minotning ayrim xususiyatlari sizga internetga samaraliroq kirishga yordam berishi mumkin, biroq dasturiy ta'minotning foydalanish hisoblari xizmat provayderingiz hisoblashidan farqli bo'lishi mumkin. Siz doimo (i) o'zingizning rejalaringiz va shartnoma shartlaringizni tushunish va ularga amal qilishga, hamda (ii) tarmoqlar, jumladan ommaviy/ochiq tarmoqlardan foydalanish va ularga kirishda yuzaga keladigan har qanday kelishmovchiliklar uchun o'zingiz javobgar hisoblanasiz. Siz tarmoqlarga ulanish va ana

shu tarmoqlar haqida kirish ma'lumotlarini almashishda ushbu dasturiy ta'minotdan faqat ruxsatingiz bo'lsagina foydalanishingiz mumkin.

b. H.264/AVC va MPEG-4 vizual standartlar va VC-1 video standartlari. Dasturiy ta'minot H.264/MPEG-4 AVC va/yoki VC-1 shifrlash texnologiyasini o'z ichiga olishi mumkin. MPEG LA, L.L.C. ushbu xabarnomani talab qiladi:

USHBU MAHSULOT AVC, VC-1 VA MPEG-4 2-QISM VIZUAL PATENTLI PORTFEL LITSENZIYALARI ASOSIDA LITSENZIYALANGAN BO'LIB ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY VA NOTIJORAT MAQSADLARIDA (i) STANDARTLARGA MOVOFIQ VIDEO («VIDEO STANDARTLARI») KODINI O'QISH VA/YOKI (ii) ISTE'MOLCHI TOMONIDAN SHAXSIY VA NOTIJORAT FAOLIYATIDA KODLAB QO'YILGAN YOKI SHUNDAY VIDEONI TAQDIM QILISHGA LITSENZIYA OLGAN VIDEO PROVAYDERI TOMONIDAN KODLAB QO'YILGAN AVC, VC-1 VA MPEG-4 2-QISM IZUAL VIDEOLARNING KODLARINI O'QISH UCHUN FOYDALANILADI. BOSHQA HAR QANDAY FOYDALANISH MAQSADIDA HECH QANDAY LITSENZIYALAR BERILMAYDI YOKI NAZARDA TUTILMAYDI. QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAT MPEG LA, L.L.C KOMPANIYASIDAN OLНИSHI MUMKIN. (AKA.MS/MPEGLA) SAYTIGA QARANG.

c.Zararli dasturlardan himoyalash. Microsoft sizni zararli qurilmalardan himoyalash ustida g'amxo'rlik qiladi. Agar boshqa himoya vositasi o'rnatilmagan bo'lsa yoki muddati o'tgan bo'lsa dasturiy ta'minot zararli dasturlardan himoya qilish funksiyasini yoqib qo'yadi. Bu funksiyani amalga oshirish uchun boshqa zararli dasturga qarshi dasturiy ta'minot o'chirib qo'yiladi yoki olib tashlanadi.

d. Cheklangan huquqlarversiyalari. Agar siz sotib olgan dasturiy ta'minot versiyasi belgiga ega bo'lsa yoki boshqa yo'sinda faqat maxsus yoki cheklangan foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa, siz undan faqat ko'rsatilgandek foydalana olasiz. Siz dasturiy ta'mnotning bunday versiyalaridan tijorat, notijorat yoki foyda olish maqsadlarida foydalana olmaysiz.

- (i) **Akademik.** Akademik maqsadlarda foydalanish uchun siz xarid qilish paytida talaba, ta'lim muassasasining fakultet xodimi yoki mutaxassis bo'lishingiz shart.
- (ii) **Baholash.** Baholash maqsadida (sinash yoki namoyish qilish) foydalanish uchun siz dasturiy ta'minotni sotishingiz, jonli muhitda ishlatish yoki baholash muddatidan so'ng ishlatishingiz mumkin emas. Mazkur shartnomadagi har qanday ziddiyatlardan qat'i nazar, **baholash dasturiy ta'mnoti «BORICHA» taqdim qilingan va ushbu versiyaga amal qiladigan hech qanday oshkor yoki nazarda tutilgan (jumladan, Cheklangan) kafolatlarni kafolatlarni taqdim qilmaydi.**
- (iii) **NFR.** Siz «NFR» yoki «Sotish uchun emas» belgilarga ega bo'lgan dasturiy ta'minotni sota olmaysiz.

(iv) **Dastlabki ko'rish.** Microsoft taqdim qilishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotning dastlabki ko'rish, insayder, beta yoki boshqa reliz oldi («dastlabki ko'rishlar») versiyalaridan foydalanib ko'rishingiz mumkin. Ushbu dastlabki ko'rish versiyalaridan faqat mazkur dasturiy ta'minotning amal qilish muddatigacha hamda shartnoma shartlarini bajarsangizgina foydalanishingiz mumkin. Dastlabki ko'rish versiyalari sinov uchun chiqarilgandir va tijoriy chiqqan versiyasidan anchayin farq qilishi mumkin. Mazkur shartnomadagi har qanday ziddiyatlardan qat'i nazar, **va ushbu versiyaga amal qiladigan hech qanday oshkor yoki nazarda tutilgan (jumladan, Cheklangan) kafolatlarni kafolatlarni taqdim qilmaydi. Qurilmangizda dastlabki ko'rish versiyalarini o'rnatishingiz bilan qurilmangiz kafolati bekor bo'lishi mumkin va qurilmangiz ishlab chiqaruvchisi yoki tarmoq operatori xizmat ko'rsatmasligi mumkin.** Dastlabki ko'rish versiyasini o'rnatish tufayli ko'rgan zararingiz uchun Microsoft javobgar hisoblanmaydi. Microsoft dastlabki ko'rish versiyalari uchu kafolat xizmatini ko'rsatmaydi. Agar siz dastlabki ko'rish versiyasi haqida Microsoft kompaniyasiga izohlar bersangiz yoki boshqa fikr va mulohazalarni taqdim qilsangiz («xabar»), siz Microsoft kompaniyasi va uning hamkorlariga mazkur xabardan istagan maqsadda foydalanish huquqini bergen hisoblanasiz.

14. Butun shartnoma. Ushbu shartnoma (ishlab chiqaruvchi, o'rnatuvchi yoki Microsoft tarafidan taqdim qilingan dasturiy ta'minot qo'shimchalari, yangilanishlar va xizmatlar bilan kelgan chop etilgan litsenziya shartlari bilan birga) va veb havolalardagi ushbu shartnomaning shartlari dasturiy ta'minotning butun shartnomasini tashkil etadi, jumladan har qanday qo'shimchalar, yangilanishla va xizmatlar (ishlab chiqaruvchi, o'rnatuvchi yoki Microsoft boshqa shartlarni qo'shimchalar, yangilanishlar va xizmatlar bilan taqdim qilmagan bo'lsa). Siz ushbu shartnomani dasturiy ta'minot ishga tushirilgandan so'ng (aka.ms/useterms) saytiga kirib yoki dasturiy ta'minotda Sozlamalar - Tizim - Dasturiy ta'minot haqida qismiga kirib ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, siz ushbu shartnomadagi har qaysi havola URLni brauzeringizda terib va rozilik bildirib ko'rib chiqishingiz mumkin. Siz dasturiy ta'minot yoki xizmatlardan foydalanishdan olding shartlarni jumladan bog'langan shartlarni o'qib chiqishga rozligingizni bergen hisoblanasiz. Siz dasturiy ta'minot va xizmatlardan foydalanishingiz bilan ushbu shartnomani va bog'langan shartlarni tasdiqlayotganligingizni tushunasiz. Shuningdek, ushbu shartnomada ma'lumot havolalari ham mavjud. Xabarnomalar va bog'langan shartlar shulardir:

- Microsoft maxfiylik bayonnomasi (aka.ms/privacy)
- Microsoft xizmat ko'rsatish shartnomasi (aka.ms/msa)
- Adobe Flash Player litsenziya shartlari (aka.ms/adobeflash)

KAFOLAT YO'Q

QURILMANGIZDAGI DASTURIY TA'MINOT (JUMLADAN ILOVALAR) «BORICHA» LITSENZIYALANGAN. MAHALLIY QONUNLARINGIZ MAKSIMAL DARAJADA RUXSAT BERGAN DOIRADA SIZ DASTURIY TA'MINOT SIFATI VA ISHLASHIGA O'ZINGIZ JAVOBGAR HISOBLANASIZ. MABODO ILOVA SHIKASTLANGAN BO'LSA TO'LIQ TO'LOVI VA UNI TUZATISH HAQI O'ZINGIZNING HISOBINGIZDANDIR. NA QURILMA ISHLAB CHIQARUVCHISI, VA NA MICROSOFT DASTURIY TA'MINOT UCHUN HECH QANDAY KAFOLAT VA SHAROITLARNI BERMAYDI. ISHLAB CHIQARUVCHISI VA MICROSOFT MAHALLIY QONUNCHILINGIZ RUXSAT BERGAN DOIRADA KO'ZDA TUTILGAN BARCHA KAFOLATLARNI YOKI SHAROITLARNI, JUMLADAN MAHSULOTDORLIGI, MUAYYAN MAQSADGA MUVOFIQLILIGI SIFATLILIGI VA QONUNNI BUZMASLILIGINI QABUL QILMAYDI. SIZ MAZKUR SHARTLAR O'ZGARTIRA OLMAJDIGAN MAHALLIY QONUNLARINGIZ DOIRASIDA QO'SHIMCHA ISTE'MOLCHILIK YOKI MAJBURIY KAFOLAT HUQUQLARIGA EGA BO'LISHINGIZ MUMKIN.

AGAR MAHALLIY QONUNLARINGIZ USHBU SHARTLARDA NAZARDA TUTLMASA HAM MUAYYAN KAFOLAT YOKI SHARTLARNI MAJBURIY QILSA, ULARNING AMAL QILISH MUDDATI ILOVANI YUKLAB OLGAN KUNINGIZDAN BOSHLAB 90 KUNNI TASHKIL QILADI. AGAR ISHLAB CHIQARUVCHI YOKI MICROSOFT SHUNDAY KAFOLATLARNI YOKI SHAROITLARNI BUZSA SIZNING ISHLAB CHIQARUVCHIDAN YOKI MICROSOFT-DAN USHBULARNI YAGONA UNDIRISH HUQUQIGA EGA BO'LASIZ (I) DASTURIY TA'MINOTNI BEPUL TUZATIB BERISH YOKI ALMASHTIRIB BERISH, YOKI (II) AGAR SHUNDAYI BO'LSA DASTURIY TA'MINOTNI (YOKI DASTURIY TA'MINOT O'R NATILGAN QURILMANI) QAYTARIB BERIB TO'LAGAN PULINGIZNI QAYTARIB OLİSHINGIZ MUMKIN. FAQAT SHULARGINA MAHALLIY QONUNLARINGIZ DOIRASIDAGI KAFOLATLAR YOKI SHAROITLAR UCHUN QOPLASH HISOBLANADI.

QONUNDA MA'N QILINMAGAN DOIRADA, SIZ IOVA ISHLAB CHIQUVCHISIDAN FAQATGINA BEVOSITA KO'RILGAN ZARARINGIZ UCHUN, QAYSI BIRI KATTAROQLIGIGA QARA ILOVA UCHU TO'LAGAN QIYMATNI YOKI \$50 AQSH DOLLARINI QAYTARIB OLİSHINGIZ MUMKIN. SIZ USHBU SHARTNOMANING HAR QANDAY QISMI YOKI BOSHQA NUQTAI NAZARDAN HAR QANDAY, JUMLADAN KETMA-KET, FOYDANI YO'QOTISH, MAXSUS, BILVOSITA YOKI TASODIFIY ZARAR UCHUN QOPLAB BERISHNI TALAB QILMAYSIZ VA ULARNI TALAB QILISH HUQUQIDAN VOZ KECHASIZ. USHBU CHEKLOV (I) MAZKUR SHARTNOMADAGI BARCHA NARSAGA, DASTURIY TA'MINOTGA (JUMLADAN ILOVALARGA), QURILMAGA, XIZMATLARGA, MA'LUMOT SHIKASTLANISHIGA YOKI YO'QOTILISHIGA, UZATISHDAGI XATOGA, MA'LUMOT QABUL QILISHDAGI XATOLARGA, UCHINCHI TOMON INTERNET SAYTIDAGI KONTENTLARGA (JUMLADAN KODGA), HAMDA (II) SHARTNOMA SHARTLARINI BUZGANLIK BO'YICHA SHIKOYATLAR, KAFOLATLAR, GARANTIYALAR YOKI HOLATLAR, QATTIQ MAJBURIYAT, NOTO'G'RI TALQIN YOKI TUSHIRIB QOLDIRISH, SUIISTE'MOL QILISH, NIZOM VA QOIDANI BUZISH YOKI ADOLATSIZ BOYISHLARGA NISBATAN AMAL QILADI.

MAZKUR SHARTNOMADAGI ZARAR ISTISNOLARI VA QOPLAB BERISH CHEKLOVLARI HATTO SIZDA BUNDAY HUQUQ BO'LMASA HAM (DASTURIY TA'MINOT «BORICHA» LITSENZIYALANGAN BO'LSA), AGAR TUZATISH, ALMASHTIRIB BERISH YOKI QOPLAB BERISH ZARARLARINGIZNI TO'LIQ QOPLAB BERMASA HAM, ISHLAB CHIQARUVCHI YOKI MICROSOFT BUNDAY ZARARLAR HAQIDA BILGAN YOKI BILISHI KERAK BO'LGANDA HAM YOKI QOPLAB BERISH BO'LMASA HAM AMAL QILADI.

Qurilamngiz kafolat doirasiga kirgan yoki kirmaganligini bilish uchun qurilma ishlab chiqaruvchingizdan so'rang.